ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 348 sahifa,
20-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Pedagogical Model for Developing Students' Communicative Competence: Organisation of Experimental Work and Evaluation of its Effectiveness 10
Mukhamedova Matlyuba Satvaldiyevna, Xudoyberdiyev Olloqul Isaqovich

Bakalavriat darajasida bo'lajak matematiklarning kasbiy hamda amaliy malakalarini rivojlantirish usullari ... 17
Abduraxmonov Abdumo'min, Sheraliyev Aliboy Tulboyevich

Sport mashg'ulotlarini real vaqt rejimida boshqarishda ter biomarkerlarini o'lchovchi taqiladigan biosensorlar 20
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li

Ekstremal issiqlik sharoitida sportchilarning ish qobiliyatini oshirish shakllari: akklimatsiya, sovitish va individual gidratatsiya dalillari 26
Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi

Mikroorganizmlarda fermentatsiya orqali energiya hosil bo'lishi va uning biotexnologik ahamiyati 31
Raxmatullaeva Maxfuza Igamberdiyevna

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligida learning analytics asosidagi metodik ta'minotning mazmuni va tuzilishi 37
Akbarova Sevaraxon Xusanboy qizi

Sovet davridan mustaqillik davrigacha O'zbekistonda suv siyosatining tarixiy transformatsiyasi: Orolbo'yi inqirozi misolida 45
Dadaboyev Nodirbek Ergashali o'g'li

Digital SAT matematika bo'limida maxsimal (800 ball) natijaga erishish strategiyalari va desmos interfaol imkoniyatlaridan foydalanish 51
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning, kreativ yondashuv asosida talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaligi 55
Abdullayeva Mavluda Aribovna

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik improvizatsion ko'nikma va malakalar 62
Ablokulov Sherali Davronovich

Interaktiv platformalar vositasida bo'lajak pedagoglarning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish: elektron ta'lim resurslarini yaratish tajribasi 66
Maxmudov Abduxalim Xamidovich, Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'li

Elektr yoritish fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati 71
Nasretdinova Feruza Nabiyevna

Developing Methodological Decision-Making Skills in Pre-Service English Language Teachers Through Clil-Based Tasks 75
Nilufar Achilovna Tuxtayeva

Developing Linguocultural Competence Through Digital Storytelling in English Language Teaching: an Integrated Approach 79
Rakhimov Mansur

Nature of Speaking in EFL Contexts: Fluency, Accuracy, and International Competence 83
Rashidova Nodira Khabibullayevna, Egamberdiyeva Marjona Abdurasul kizi

Autizmli bolalarning sensor rivojlanishida ta'lim muhitining o'rni 89
Sh. A. Nurmatova

Ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligining metodologik transformatsiyasi: inson markazli pedagogik paradigma 94
Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi

Ingliz tilini o'qitishda aralash metodlarni qo'llashning didaktik asoslari va darsni loyihalash modeli 102
Usmonova Dilnoza Muratovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Онлайн-проекты как механизм формирования профессиональных навыков у будущих учителей русского языка 106
Матниязова Азиза Бахтияровна

Malakali dzyudochilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratni takomillashtirish mexanizmlariga innovatsion yondashuv 110
Tangriyev Abdullo Tovashevich

Malakali dzyudochilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Olimpiya saralash davrida rejalashtirish va cho'qqi shaklga chiqarish 116
Tangriyev Abdukarim Tovashevich

Sinfdan tashqari faoliyatlar jarayonida hadislarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik salohiyati va amaliy asoslarini takomillashtirish 122
Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Ta'lim loyihalarining iqtisodiy-pedagogik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari 129
Saitxonov Bobomurod Po'latovich

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi 133
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Aksiologik yondashuvning pedagogik va psixologik mohiyati 138
Hafizov Shahriyor Shavkatovich

Emotsional intellektni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari 142
Nishonova Lobar Mirzakulovna

Boshlang'ich sinflarda ongli o'qishni leksik-kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish 146
Ne'matova Diyora Baxodir qizi, Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

O'qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar 153
Konratbayeva Ayjamal Bazarbayevna

Xorijiy tajribada neyropedagogik yondashuvlar va kognitiv boshqaruv modellari: kengaytirilgan tanqidiy komparativ tahlil 158
Izzatullayeva Zohidaxon Sunatdullayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi: pedagogik tahlil 164
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Israilova Oydin Uchkun qizi

O'zbek musiqiy merosi va uni talabalarda qadriyatli munosabat sifatida shakllantirish 169
Mannapov Sultonali, Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar asosida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 173
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Maktabgacha ta'limda 6–7 yoshli bolalarning metakognitiv kompetensiyalarini o'yin faoliyati orqali rivojlantirishning texnologik dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish tizimi 177
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna

Futbol texnikasining asosiy elementlari va texnik harakatlarni bajarish usullarini o'rgatish 182
Sadriddin Tulepov

Innovatsion ta'lim muhiti asosida pedagogika fanini o'qitish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash 187
Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy idrok va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning sinergetik-integrativ asoslari 192
Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 197
Allayarova Dilfuza Klichevna

Practical Methodological Approaches to Developing Management Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Organizations Principles of Connecting Theoretical Knowledge With Practical Activity 201
Makhamadalieva E'zoza Rustamkhuja

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kimyo muhandisligi terminologiyasida polisemiya hodisasi 205
Shomurodova Zebiniso Rajabovna

Talabalar o'quv muvaffaqiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik determinantlari 209
Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

O'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini mediamatnlar vositasida rivojlantirishga oid xorijiy tajriba tahlili 219
Turdimuratova Aysanem

Искусственный интеллект в преподавании русского языка в узбекоязычной аудитории: возможности, риски и методические решения 224
Мустанов Убайдулла Зулпанович

Shaxs texnologik tafakkuri fenomenining falsafiy-antropologik va gnoseologik talqini 229
Toshpulatova Farida Radjabovna

Lotin tilining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni 234
Shirinkulova Shafoat Malikovna, Rajabova Charos Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediamadaniyatini kasbiy-pedagogik sifat sifatida rivojlantirishning konseptual asoslari 240
Narmanov Alisher Hasanovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish 244
Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna

Sun'iy intellekt orqali talabalar kasbiy sifatlarini rivojlantirishning boshlang'ich tushunchalari 249
Normurodov Sherzod Boymurodovich

"Smart o'qish" raqamli platformasi va muallif metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini rivojlantirish 253
Obidova Shohsanam G'anijon qizi

Lingvopoetikada shakl va mazmun birligi xususida nazariy qarashlar 257
Quvonchoy Yusupova

Designing an ESP Coursebook for Architecture Students on the Basis Of VTTSS 262
Sabirova Nilufar Kudratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish 266
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

A Comparative Study of Idiom and Environmental Meaning in the Works of Ernest Hemingway and Tog'ay Murod 272
Zebiniso Allayarova, Malika Bahromova

Maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy asoslari 277
Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich

Обучение русскому языку студентов направления узбекской филологии с использованием искусственного интеллекта: методическая модель 282
Набиева Камиля Азимовна

Bo'lajak tarbiyachilar mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari va diagnostik vositalari 290
Tavobova Ozoda Farhodovna

Все три брата Лобачевские действительно восприняли талант отца 296
Жумаев Эркин Эргашевич, Аманниязова Бибимариям Пирнияз кызы

Pedagogik tafakkur tarixida fikr tarbiyasi: yondashuvlar va zamonaviy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari 302
Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish muammolari 306
Raxmatullayeva Malika Bahodir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyati 310
Imomkulova Ozoda Norboboyevna

Pedagogika mutaxassisligi magistrlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interdisiplinar mexanizmlari... 315
Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida parametr qatnashgan chiziqli tenglamalarni o‘rganish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar..... 319
Musayeva Ziyoda Allayarovna

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalash..... 325
Namozova Barno Navruzovna

Umumta’lim maktablarida formativ baholash orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: pisa yondashuvi asosida 331
Norqulov Furqat Maxmatmo‘minovich

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash usullari..... 336
Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari 343
Raxmatullin Rafis Sagitovich, Zaitov Iskander Ravilevich, Ikromova Rano Ubaydullayevna, Qodirova Raxima Rajabovna, Muratbayeva Aliya Paraxatovna, Juman Turonovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYATNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna
Nizomiy nomidagi O'zMPU,
"Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasi
professor v.b (PhD)
E-mail: shahnoza.xasanova1972@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik asoslari, mazmuni va ahamiyati yoritilgan. Unda tasviriy faoliyatning bolalarning jismoniy, aqliy, ijodiy, ijtimoiy-emotsional va estetik rivojlanishiga ta'siri, bilish, ijodiy, kommunikativ, ijtimoiy hamda o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, tasviriy faoliyat, tasviriy kompetensiya, ijodiy qobiliyat, badiiy idrok, estetik tarbiya, pedagogik texnologiya, integratsiya, individual yondashuv, rivojlantiruvchi muhit, mashg'ulotni rejalashtirish, formatif baholash, pedagogik kuzatish, refleksiya.

Abstract: This article explores the pedagogical foundations, content, and significance of organizing visual arts activities in preschool educational organizations based on the competency-based approach. It analyzes the role of visual arts activities in children's physical, cognitive, creative, social-emotional, and aesthetic development, as well as their potential to develop cognitive, creative, communicative, social, and self-development competencies.

Key words: competence, competency, competency-based approach, visual arts activities, visual arts competence, creative abilities, artistic perception, aesthetic education, pedagogical technology, integration, individual approach, developmental environment, activity planning, formative assessment, pedagogical observation, reflection.

Аннотация: В данной статье освещаются педагогические основы, содержание и значение организации изобразительной деятельности в организациях дошкольного образования на основе компетентностного подхода. Проанализированы влияние изобразительной деятельности на физическое, умственное, творческое, социально-эмоциональное и эстетическое развитие детей, а также её возможности в формировании познавательных, творческих, коммуникативных, социальных компетенций и компетенций саморазвития.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, компетентностный подход, изобразительная деятельность, изобразительная компетенция, творческие способности, художественное восприятие, эстетическое воспитание, педагогическая технология, интеграция, индивидуальный подход, развивающая среда, планирование занятий, формирующее оценивание, педагогическое наблюдение, рефлексия.

KIRISH

Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy, aqliy, ijtimoiy-emotsional va ijodiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolada atrof-muhitni idrok etish, predmetlarning shakli va rangini farqlash, tasavvur qilish, o'z fikrini ifodalash, mustaqil qaror qabul qilish hamda ijodiy faoliyatga qiziqish kabi sifatlar shakllana boshlaydi. Tasviriy faoliyat ana shu jarayonlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim pedagogik vositalardan biridir [Nurmatova va Xasanova, 2012].

Tasviriy faoliyatga rasm chizish, loy va plastilin bilan ishlash, applikatsiya, turli tabiiy hamda qayta ishlanuvchi materiallardan kompozitsiyalar yaratish kabi mashg'ulotlar kiradi. Ushbu faoliyat turlari orqali bolalar nafaqat tasvir yaratishni, balki predmetlarni kuzatishni, ularning xususiyatlarini taqqoslashni, rang va shakllarni tanlashni, o'z g'oyasini rejalashtirishni va natijani tahlil qilishni ham o'rganadilar [Xasanova, 2020].

Zamonaviy maktabgacha ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi faqat bolalarga tayyor bilimlarni berish bilan belgilanmaydi. Muhimi, bolaning olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olishi, muammoli vazi-

yatlarda mustaqil fikrlashi, o‘z imkoniyatlarini namoyon etishi va yangi tajribalarni o‘zlashtirishidir. Bu esa ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishni talab qiladi [“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, 2022].

Kompetensiyaviy yondashuv tasviriy faoliyatni tashkil etishda ham alohida ahamiyatga ega. Bunda pedagog bolaga faqat rasm chizish yoki buyum yasash usullarini o‘rgatish bilan cheklanmaydi. U bolaning kuzatuvchanligini, ijodkorligini, estetik didini, mustaqilligini, muloqot ko‘nikmalarini va o‘z faoliyati natijasini baholash qobiliyatini ham rivojlantiradi [Choriyeva, 2025].

Kompetensiyaviy yondashuv – ta’lim oluvchida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va tajribani turli amaliy vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni hal qilish, mustaqil faoliyat yuritish va o‘z imkoniyatlarini namoyon etish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvdir. Mazkur yondashuvda ta’limning asosiy natijasi faqat ma’lumotlarni eslab qolish yoki nazariy bilimlarni takrorlash bilan cheklanmaydi. Asosiy e’tibor olingan bilimlardan foydalanish, amaliy vazifalarni bajarish, mustaqil fikrlash va faoliyat natijasini anglashga qaratiladi. Masalan, bola ranglarning nomlarini bilishi bilim hisoblanadi. U qizil, sariq, ko‘k va yashil ranglarni rasm chizishda to‘g‘ri tanlay olsa, bu bilimini amalda qo‘llayotganini ko‘rsatadi. Agar bola o‘z tasvirida ranglarni nima sababdan tanlaganini tushuntirsa, boshqa ranglardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqsa va o‘z g‘oyasini mustaqil amalga oshirsa, unda tasviriy faoliyatga oid murakkabroq kompetensiyalar namoyon bo‘ladi.

Demak, kompetensiyaviy yondashuv bolani ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Pedagog esa bilim beruvchi bilan bir qatorda bolaning faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi va rivojlanishini kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Maktabgacha ta’limda bu yondashuv bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, individual imkoniyatlari va rivojlanish sur’atini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zlashtirish jarayoni ko‘proq bevosita kuzatish, o‘yin, tajriba, harakat, muloqot va amaliy faoliyat bilan bog‘liq [Iminova va Yaqubjonova, 2025].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik adabiyotlarda kompetensiya va kompetentlik tushunchalari o‘zaro bog‘liq holda qo‘llaniladi, biroq ular mazmunan bir-biridan farqlanadi.

Kompetensiya – muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba va harakat usullariga qo‘yiladigan talablar majmuasi.

Kompetentlik – shaxsning mavjud bilim, ko‘nikma, malaka va tajribasini muayyan vaziyatda samarali qo‘llay olish qobiliyati hamda tayyorgarligidir. Tasviriy faoliyat misolida ushbu tushunchalarni quyidagicha izohlash mumkin: Bola geometrik shakllarni taniydi – bu bilim.

Doira, kvadrat va uchburchak shakllarini qog‘ozga chiza oladi – bu amaliy ko‘nikma. Ushbu shakllardan foydalanib, mustaqil ravishda uy, mashina yoki boshqa kompozitsiya yaratadi – bu bilim va ko‘nikmalarni ijodiy qo‘llashdir. Bola yaratgan ishini tushuntiradi, materiallarni ongli ravishda tanlaydi va faoliyatini davom ettirish yo‘lini belgilaydi – bu kompetentlikning namoyon bo‘lishiga misol bo‘la oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kompetentlikni baholashda ularning yosh imkoniyatlari va individual rivojlanish sur’atini hisobga olish zarur. Boladan katta yoshdagi o‘quvchi yoki kattalar darajasidagi natijani kutish pedagogik jihatdan to‘g‘ri emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompetensiyaviy yondashuv quyidagi xususiyatlarga ega [“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, 2022; Iminova va Yaqubjonova, 2025]:

Birinchidan, **amaliy yo‘naltirilganlik.** Bolalar o‘rgangan bilimlarini bevosita faoliyatda qo‘llaydilar. Masalan, ranglar haqidagi bilimlarini tabiat manzarasini chizishda yoki geometrik shakllarni applikatsiya qilishda ishlatadilar.

Ikkinchidan, **bolaning faolligi va mustaqilligi.** Bola topshiriqni bajarishda faqat pedagog ko‘rsatmalarini takrorlamasdan, o‘z fikrini bildirishi, material tanlashi va ijodiy yechim topishi uchun imkoniyatga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, **individual yondashuv.** Har bir bolaning qiziqishi, tajribasi, tasviriy imkoniyatlari va rivojlanish sur’ati e’tiborga olinadi. Bir xil topshiriqni bolalar turli usulda bajarishlari mumkin.

To‘rtinchidan, **integrativlik.** Tasviriy faoliyat nutq o‘stirish, matematik tasavvurlar, tabiat bilan tanishtirish, musiqa, jismoniy rivojlanish va ijtimoiy-emotsional rivojlanish bilan bog‘lanadi.

Beshinchidan, **ijodiylik.** Bolaga tayyor namunani aynan takrorlash bilan cheklanmay, o‘z tasavvuriga asoslangan tasvirlar yaratish imkoniyati beriladi.

Oltinchidan, **jarayonga yo‘naltirilgan baholash.** Pedagog faqat yakuniy rasm yoki buyumga emas, balki bolaning faoliyat jarayoniga, urinishlariga, mustaqil qarorlariga va rivojlanishidagi o‘zgarishlarga ham e’tibor beradi.

Yettinchidan, **refleksiya.** Bola o‘z ishini ko‘rib chiqish, undagi qiziqarli jihatlarni aytish, nimani o‘rganganini tushunish va keyingi safar nimani boshqacha bajarishni o‘ylab ko‘rishga bosqichma-bosqich o‘rgatiladi.

Tasviriy faoliyat bolaning turli rivojlanish sohalarini birgalikda qo‘llab-quvvatlaydi [Botirova, 2022]. Uning ahamiyati bir nechta yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Bola tasvir yaratishdan oldin predmetni kuzatadi, uning shakli, rangi, o‘lchami, qismlari va joylashuvini o‘rganadi. Bu jarayon kuzatuvchanlik, taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, olma rasmini chizishdan oldin bola haqiqiy olmani kuzatadi. Uning yumaloq shakli, rangi, bandi va hajmiga e’tibor beradi. So‘ng kuzatgan belgilarini tasvirda ifodalashga harakat qiladi. Tasviriy faoliyat davomida bolalar ranglar, shakllar, materiallar va harakatlarni ifodalovchi so‘zlarni o‘rganadilar. O‘z ishlarini izohlash, tengdoshlarining ishlarini muhokama qilish va savollarga javob berish orqali nutqiy faollik rivojlanadi. Bola o‘z tasavvuriga tayangan holda yangi obrazlar yaratadi, mavjud shakllarni o‘zgartiradi va turli materiallardan foydalanadi. Bu jarayonda ijodiy fikrlash, muqobil yechimlarni izlash va g‘oyalarni amalda sinab ko‘rish ko‘nikmalari shakllanadi. Qalam, mo‘yqalam, qaychi, yelim, loy va plastilin bilan ishlash barmoqlar harakatini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Bu faoliyatlar ko‘z bilan qo‘l harakatlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ham mustahkamlaydi. Guruhda ishlash, materiallarni bo‘lishish, tengdoshlar fikrini tinglash, o‘z ishini namoyish qilish va boshqalarning mehnatini qadrlash ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bola faoliyat davomida sabr qilish, vazifani yakunlash va qiyinchiliklarga bardosh berishni ham o‘rganadi. Tabiatdagi ranglar, shakllar, naqshlar va badiiy obrazlarni kuzatish bolalarda go‘zallikni his qilish, estetik did va badiiy idrokni shakllantiradi. Bunda bolaning ijodiy tanlovi hurmat qilinishi va uning tasviri kattalar didiga majburan moslashtirilmasligi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat orqali bir-biri bilan bog‘liq bir nechta kompetensiyalar rivojlantiriladi [“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, 2022].

1. **Bilish kompetensiyasi.** Bola predmetlarning xususiyatlarini kuzatadi, rang va shakllarni farqlaydi, tasviriy materiallarning vazifasini tushunadi hamda o‘z bilimlarini faoliyatda qo‘llaydi. Misol: bola turli barglarni kuzatib, ularning shakli va rangidagi farqlarni aniqlaydi va barglardan kompozitsiya yaratadi.
2. **Ijodiy kompetensiya.** Bola o‘z g‘oyasini tasviriy vositalar orqali ifodalaydi, yangi obrazlar yaratadi, turli usullarni sinab ko‘radi va mustaqil yechimlar topadi. Misol: bola oddiy geometrik shakllardan foydalanib, o‘z tasavvuridagi shahar manzarasini yaratadi.
3. **Kommunikativ kompetensiya.** Bola o‘z ishini tushuntiradi, material va rang tanlovini izohlaydi, tengdoshlari bilan fikr almashadi hamda guruhdagi umumiy faoliyatda qatnashadi. Misol: bolalar birgalikda “Bizning bog‘imiz” nomli katta applikatsiya yaratib, undagi vazifalarni o‘zaro kelishib oladilar.
4. **Ijtimoiy kompetensiya.** Bola umumiy qoidalarga amal qiladi, materiallardan navbat bilan foydalanadi, boshqalarning mehnatini hurmat qiladi va jamoaviy faoliyatda ishtirok etadi. Misol: guruhiy kompozitsiya yaratishda bolalar gullar, daraxtlar va uylar tasvirini o‘zaro taqsimlaydilar.
5. **O‘zini o‘zi rivojlantirish va faoliyatini boshqarish kompetensiyasi.** Bola topshiriqni bajarishga kirishadi, faoliyat ketma-ketligini tushunadi, qiyinchilik yuzaga kelganda yordam so‘raydi va ishini yakunlashga intiladi. Misol: bola rasm chizishdan oldin kerakli ranglarni tanlaydi, ish joyini tayyorlaydi va tasvirini tugatgach, foydalanilgan materiallarni tartibga keltiradi.

Mazkur kompetensiyalar alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi. Masalan, guruh bo‘lib tabiat manzarasini yaratish jarayonida bolalar bir vaqtning o‘zida bilish, ijodiy, kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlaydigan pedagog bolaga tayyor yechimni berishdan ko‘ra, uning mustaqil faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishga intiladi [Dadajanova, 2024].

Pedagogning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tasviriy faoliyat uchun xavfsiz va rivojlantiruvchi muhit yaratish;
- bolalarda qiziqish uyg‘otadigan muammoli vaziyat va ijodiy topshiriqlarni tanlash;
- turli materiallar va tasviriy usullar bilan tanishtirish;
- bolalarning mustaqil tanlovi va tashabbusini qo‘llab-quvvatlash;
- zarur vaziyatlarda ko‘rsatma berish, lekin bolaning o‘rniga ishni bajarib qo‘ymaslik;
- bolalar o‘rtasidagi individual farqlarni hurmat qilish;

- faoliyat jarayonini kuzatish va rivojlanish dinamikasini qayd etish;
- ota-onalar bilan hamkorlikda bolaning ijodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash.

Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuv tasviriy faoliyatning mazmunini kengaytiradi: bola nafaqat tasvir yaratishni, balki o‘ylashni, tanlashni, muloqot qilishni, hamkorlikda ishlashni va o‘z faoliyatini tushunishni ham o‘rganadi. Tasviriy kompetensiyalar – bolaning tasviriy faoliyatga oid bilim, ko‘nikma va tajribasini amaliy hamda ijodiy vazifalarni bajarishda qo‘llay olish qobiliyatini ifodalovchi rivojlanish ko‘rsatkichlaridir [Iminova va Yaqubjonova, 2025]. Ular bolaning rasm chizishi, loy yoki plastilin bilan ishlashi, applikatsiya yaratishi, turli materiallarni birlashtirishi, rang va shakllarni tanlashi hamda o‘z g‘oyasini ifodalashida namoyon bo‘ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tasviriy kompetensiyalarni shakllantirish faqat texnik ko‘nikmalarni rivojlantirishdan iborat emas. Bu jarayon bolaning badiiy idroki, estetik munosabati, mustaqil fikrlashi, ijodiy tasavvuri va o‘z ishini tushuntirish qobiliyatini ham qamrab oladi. Masalan, bola qalamni to‘g‘ri ushlashi va chiziqlar chizishi muhim. Biroq undan ham muhim jihat – bola chiziqlar yordamida nimani ifodalashni istayotganini tushunishi, o‘z g‘oyasini amalga oshirishga harakat qilishi va o‘z ishidan qoniqish hosil qilishidir. Tasviriy kompetensiyalarni rivojlantirishni shartli ravishda quyidagi bosqichlar orqali tashkil etish mumkin.

Birinchi bosqich – **qiziqish va idrokni shakllantirish.** Bu bosqichda bolalarda predmetlar, ranglar, shakllar, tabiat manzaralari va badiiy obrazlarga qiziqish uyg‘otiladi. Pedagog bolalarga predmetlarni kuzatish, ularning xususiyatlarini taqqoslash va farqlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Masalan, bolalar kuzgi barglarni kuzatib, ularning ranglari, shakllari va kattaligini taqqoslaydilar.

Ikkinchi bosqich – **dastlabki ko‘nikmalarni egallash.** Bolalar qalam, mo‘yqalam, loy, plastilin, qog‘oz, yelim va boshqa materiallardan foydalanishni o‘rganadilar. Pedagog zarur texnik usullarni ko‘rsatadi, bolalar esa ularni amalda sinab ko‘radilar. Bu bosqichda topshiriqlar bolaning yosh imkoniyatlariga mos bo‘lishi, ko‘rsatmalar tushunarli va qisqa berilishi lozim.

Uchinchi bosqich – **ko‘nikmalarni mustaqil qo‘llash.** Bolalar o‘zlashtirgan usullardan foydalanib, mustaqil tasvirlar yaratadilar. Pedagog ularni material, rang, shakl va kompozitsiyani tanlashga undaydi. Masalan, bolalarga “Mening sevimli o‘yinchog‘im” mavzusida rasm chizish taklif qilinadi. Har bir bola o‘yinchoqni o‘z tasavvuriga muvofiq tasvirlaydi.

To‘rtinchi bosqich – **ijodiy qo‘llash va yangi yechimlar topish.** Bu bosqichda bolalar o‘zlashtirgan usullarni yangi vaziyatlarda qo‘llaydilar, bir nechta materialdan foydalanadilar va mustaqil kompozitsiyalar yaratadilar. Masalan, bola qog‘oz, tabiiy barglar va rangli kartondan foydalanib, “Kuzgi bog‘” kompozitsiyasini yaratadi.

Mazkur bosqichlar qat’iy va barcha bolalar uchun bir xil ketma-ketlikda kechmaydi. Ayrim bolalar ma’lum ko‘nikmalarni tezroq o‘zlashtirishi, boshqalarga esa qo‘shimcha mashq va pedagog ko‘magi kerak bo‘lishi mumkin. Tasviriy faoliyatda texnologiya tanlashda bolaning yoshi, mashg‘ulot maqsadi, materiallarning xususiyati, xavfsizlik talablari va kutilayotgan rivojlanish natijalari hisobga olinadi [Dadajanova, 2024].

O‘yin texnologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin tabiiy va samarali faoliyat shaklidir. Shu sababli tasviriy mashg‘ulotlarni o‘yin vaziyatlari bilan boyitish bolalarning qiziqishi va faolligini oshiradi. Masalan, “Sehrli ranglar”, “Rassomlar ustaxonasi”, “Qo‘g‘irchoqqa sovg‘a tayyorlaymiz”, “Hayvonlar uchun uycha quramiz” kabi o‘yinlar orqali bolalar tasviriy topshiriqlarni bajara oladilar. O‘yin texnologiyasini qo‘llashda quyidagilarga e’tibor beriladi:

- o‘yin maqsadi mashg‘ulot maqsadiga mos bo‘lishi;
- qoidalar bolalar uchun tushunarli bo‘lishi;
- barcha bolalarga faol qatnashish imkoniyati berilishi;
- o‘yin bolalarni ortiqcha raqobatga yoki bir-birini kamsitishga olib kelmasligi;
- o‘yin davomida ijodiy tanlov uchun sharoit yaratilishi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi. Muammoli ta’lim bolalarni savol, vaziyat yoki amaliy muammo orqali fikrlashga undaydi. Pedagog tayyor javobni darhol bermasdan, bolalarni turli yechimlarni izlashga yo‘naltiradi. Masalan, pedagog bolalarga turli shakldagi qog‘ozlarni ko‘rsatib: “Bu shakllardan qanday hayvon yoki transport vositasini yaratish mumkin?” deb so‘raydi. Bolalar shakllarni joylashtirib ko‘radilar, o‘z fikrlarini aytadilar va bir nechta yechimni sinab ko‘radilar. Bu jarayon ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Loyihaviy ta'lim texnologiyasi. Loyihaviy faoliyat bolalarning muayyan mavzu asosida uzoqroq davom etadigan ijodiy ishni birgalikda rejalashtirishi va amalga oshirishini nazarda tutadi. Masalan, "Bizning bog'imiz", "Ertaklar shaharchasi", "Tabiatni asraymiz" loyihalari doirasida bolalar rasmlar chizishlari, applikatsiyalar yaratishlari va tabiiy materiallardan kompozitsiyalar tayyorlashlari mumkin.

Loyihaviy faoliyat quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

- Mavzu va maqsadni aniqlash.
- Bolalarning fikr va takliflarini yig'ish.
- Kerakli materiallarni tanlash.
- Vazifalarni taqsimlash.
- Ijodiy ishlarni bajarish.
- Umumiy kompozitsiyani yaratish.
- Natijani ko'rib chiqish va muhokama qilish.

Loyiha bolalarning yoshiga mos, qisqa va tushunarli bo'lishi lozim. Pedagog bolalar o'rniga barcha qarorlarni qabul qilmasdan, ularning takliflarini inobatga oladi. Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasi.

Integratsiya – turli ta'lim va rivojlanish yo'nalishlarini yagona mazmuniy faoliyatda birlashtirishdir. Tasviriy faoliyatni matematika, nutq o'stirish, tabiat bilan tanishtirish, musiqa va ijtimoiy-emotsional rivojlanish bilan bog'lash mumkin. Masalan, "Bahor keldi" mavzusidagi mashg'ulotda bolalar bahor faslidagi o'zgarishlar haqida suhbatlashadilar; gullarning ranglari va shakllarini kuzatadilar; gullarni sanaydilar yoki kattaligiga ko'ra taqqoslaydilar; bahor manzarasini chizadilar; o'z ishlari haqida hikoya qiladilar. Bunday yondashuv bolalarning bilimlarini o'zaro bog'lashga va ularni turli vaziyatlarda qo'llashga yordam beradi.

Muqobil va noan'anaviy tasviriy usullar. Noan'anaviy tasviriy usullar bolalarning qiziqishini oshirish, yangi tajribalar orttirish va materiallarning turli imkoniyatlarini anglashga yordam beradi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- barmoq va kaft yordamida tasvir yaratish;
- gubka bilan bo'yash;
- shtamp va tamg'alardan foydalanish;
- qog'ozni buklash va yirtish orqali kompozitsiya yaratish;
- ip, barg yoki boshqa xavfsiz materiallar izidan tasvir hosil qilish;
- turli fakturali materiallarni birlashtirish.

Bunday usullarni tanlashda materiallarning xavfsizligi, gigiyenik talablarga muvofiqligi va bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Mayda qismlar, o'tkir buyumlar, zaharli bo'yoqlar yoki bolalar uchun mo'ljallanmagan materiallardan foydalanish mumkin emas.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. Hamkorlikda o'qitish bolalarning juftlikda yoki kichik guruhlarda umumiy vazifani bajarishini nazarda tutadi. Masalan, "Bizning mahallamiz" nomli umumiy kompozitsiyani yaratishda bir guruh bolalar uylarni, ikkinchi guruh daraxtlarni, uchinchi guruh yo'llar va gulzorlarni tasvirlaydi. Hamkorlik jarayonida bolalar o'zaro kelishish, fikr almashish, materiallardan navbat bilan foydalanish va umumiy natija uchun mas'uliyatni his qilishni o'rganadilar. Pedagog vazifalarni bolalarning imkoniyatlariga mos taqsimlaydi va hech bir bola guruh ishidan chetda qolmasligini kuzatadi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish bolalarning bilim, ko'nikma va tajribasini amaliy hamda ijodiy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday yondashuvda tasviriy mashg'ulotlarning maqsadi faqat chiroyli rasm chizish yoki namunaga mos buyum yaratish bilan cheklanmaydi. Asosiy e'tibor bolaning mustaqil fikrlashi, ijodiy tashabbusi, estetik idroki, muloqot ko'nikmalari va faoliyatni tashkil etish qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Tasviriy kompetensiyalarni shakllantirishda o'yin, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, integratsiyalashgan mashg'ulotlar, hamkorlikda ishlash va noan'anaviy tasviriy usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Biroq har qanday texnologiya bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishi, individual imkoniyatlari va xavfsizlik talablariga muvofiq tanlanishi kerak.

Mashg'ulotlarni samarali rejalashtirish uchun maqsad, vazifalar, kutiladigan natijalar, metodlar, materiallar va baholash mezonlari o'zaro uyg'unlashtiriladi. Baholash esa bolalarni bir-biri bilan solishtirish vositasi emas,

balki ularning individual rivojlanishini kuzatish va keyingi pedagogik yordamni belgilash usuli sifatida qaraladi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan tasviriy faoliyat bolalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, estetik madaniyatini rivojlantirish va keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent, 2022.
2. Xasanova Sh. X. Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
3. Nurmatova M. Sh., Xasanova Sh. T. Rasm, buyum yasash va tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. – Toshkent: Musiqa, 2012. – 186 b. ISBN 978-9943-307-59-9.
4. Xurvaliyeva T. L., Boliyeva L. Sh. Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat. – Chirchiq, 2023. – 158 b.
5. Choriyeva D. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyatga o'rgatish usullari va metodlari // Maktabgacha va maktab ta'limi. – 2025. – 3-jild, 1-son.
6. Dadajanova G. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etishda metodik-didaktik yondashuv // Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya. – 2024. – 3-jild, 11-son. – B. 84–87.
7. Iminova D., Yaqubjonova H. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – 4-jild, 5-son. – B. 14–15.
8. Botirova Sh. I. Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat. – Toshkent: Book Trade, 2022. – 110 b. ISBN 978-9943-8821-3-3.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.